

O'ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN SAVDO IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI.

Lola Olimjonovna
Boboniyozova Lola Olimjonovna

*Navoiy Davlat Pedagogika instituti Ijtimoy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi 2-
kurs magistranti*

XXI asrni o'zining keng qamrovli shiddati bilan qarshi olgan globallashuv va uning "kichkina laboratoriyasi" sifatida e'tirof etilayotgan mintaqaviy integratsiyalashuv jarayonlari insoniyatni tobora yangi istiqbollar sari yetaklamoqda. Tabiiy hodisa deb qaralayotgan bu jarayon yer yuzidagi barcha katta-kichik davlatlarni o'z domiga tortib, dunyo xalqlarini yanada jipslashishga undamoqda.

Jumladan, Yevropada muvaffaqiyat bilan davom etayotgan integratsiyaviy jarayonlar xalqlarning bir butun bo'lib yashashga bo'lgan ko'p asrlik orzu-umidlari amalga oshishi uchun zamin hozirlamoqda. Yahlit bozor yaratish yo'lidagi iqtisodiy hamjihatlik o'zining tor o'zanidan chiqib, yagona fuqarolik va umumiy tashqi siyosat tomon qadam tashladi.

O'zida 27 ta davlatni birlashtirgan, aholisi jihatdan Xitoy va Hindistondan keyingi uchinchi, yer maydoni jihatdan esa, dunyodagi yettinchi o'ringa chiqib olgan Yevropa Ittifoqining O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'rni salmoqlidir. Yevropa Ittifoqi tashkiloti va uning a'zo davlatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalar mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston tashqi siyosatining tub prinsiplarini belgilab beruvchi hujjatlarda mazkur ustivorlik alohida qayd etib o'tilgan. Ikki tomonlama munosabatlarning O'zbekiston uchun ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topadi:

Birinchidan, Yevropa Ittifoqining ilg'or davlatlari (Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya va boshqalar) O'zbekiston uchun yuqori texnologiyalar manbaidir. Samolyotsozlik, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, qurilish va, umuman, ishlab chiqarishning barcha sohalariga eng zamonaviy g'arb texnologiyalarini jalb etish respublikamizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqi o'zining barcha a'zo davlatlari bilan bir butunlikda O'zbekistonning tayyor va xomashyo mahsulotlari uchun MDHdan keyingi eng katta iste'mol bozorini tashkil qiladi. Biroq iste'molchilarning xarid quvvatini inobatga olganda Yevropa bozori O'zbekiston tovarlari uchun har qanday bozordan ko'ra jozibaliroqdir.

Uchinchidan, G'arbiy Yevropa savdo-sotiq sohasida mamlakatimizning asosiy hamkorlaridan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga, sarmoyalarning ham asosiy manbaidir. Ittifoqning xorijiy davlatlarga yo'naltirilgan sarmoya hajmi salkam 10 trln. dollarni tashkil etadi. Buni inobatga olgan holda Yevropa sarmoyalari mamlakatimizga jalb etish masalasiga katta e'tibor qaratilib, ular uchun qulay investitsiyaviy iqlim yaratib kelinmoqda.

To'rtinchidan, mintaqaviy va global xavfsizlikni saqlash hamda ta'minlash har ikki tomon uchun ham dolzarb vazifadir. Xalqaro terrorizm, narkobiznes, ekstremizm va boshqa

ko‘rinishdagi transmilliy tahdidlarga qarshi kurash va mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashdan har ikki tomon birdek manfaatdordir. Yevropalik mutaxassislar ta‘biri bilan aytganda, “xavfsizlik nuqtayi nazaridan Yevropaning chegarasi Afg‘oniston sarhadlaridan boshlanadi”.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari mustaqillikka erishganimizdan buyon jadal sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. 1996 yilda imzolangan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishga asos bo‘lib xizmat qildi. Bu bitim siyosiy muloqot, savdo, biznes, investitsiya, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik va iqtisodiyot, demokratiya hamda inson huquqlari, noqonuniy immigratsiyaga qarshi kurashish, gumanitar sohalardagi hamkorlikni qamrab olgan. 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so‘ng ikki tomonlama munosabatlar rivoji, ayniqsa, yangicha tus oldi. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati va mintaqadagi barqarorlikni ta‘minlashda O‘zbekistonning hal qiluvchi mavqeini tushunib yetdi. Shundan kelib chiqqan holda, Yevropa Ittifoqining Lyuksemburg Kengashi va Gent sammiti tashkilotning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini kuchaytirishni zarur deb topdi. Shuningdek, mintaqa mamlakatlari, ayniqsa, O‘zbekiston bilan aloqalarga ustuvor mavqe berish, siyosiy, transport, energetika, savdo, investitsiya sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish lozimligi ta‘kidlandi. Ikki tomonlama savdo aloqalarining umumiy hajmi 1993-yilda 545 mln., 2006-yilda 1.1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilda bu ko‘rsatkich 1 mlrd. 759 mln. AQSH dollariga yetdi. 2020-yil yakunlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston bilan savdo aylanmasi hajmi 2,228 mln. yevroni tashkil etdi. Germaniya (874 million), Italiya (340 million) hamda Fransiya (267 million) O‘zbekistonning YEIdagi asosiy savdo hamkorlari sanalsa-da, tovar ayirboshlashda Kipr, Chexiya, Litva, Latviya, Sloveniya, Estoniya, Polsha kabi Yevropa Ittifoqi yangi a‘zo davlatlarining ulushi ortib borayotganligi quvonarli holatdir.

Ikki tomonlama munosabatlarda iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalari eng ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi va uning a‘zo davlatlari bilan savdo aloqalari katta salmoqni tashkil etadi. Shuningdek Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, import hamda eksport qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan bojxona yig‘imlari, boj to‘lovlarida preferensiyalar berishi bo‘yicha qator majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan. 2007 yildan beri Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston har yili inson huquqlari, odil sudlov hamda boshqa masalalar yuzasidan Bryussel va Toshkentda muloqot o‘tkazib keladi. Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston bilan munosabatlari mazkur tuzilmaning Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Unda hamkorlikning umumiy maqsadlari, siyosiy muloqot va Yevropa Ittifoqi ishtirok etishi mumkin bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan. O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan sud tizimi, davlat boshqaruvi hamda xavfsizlik sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda sudlarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash, muqobil jazo turlarini kengaytirish bo‘yicha aniq qadamlar tashlanayotgani fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashda muhim huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qilmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi kurashning ta‘sirchan institutsional hamda huquqiy mexanizmlari joriy qilinayotgani ham diqqatga

sazovor. O'z navbatida, ishbilarmonlik va investitsiya muhiti yanada yaxshilanmoqda. Ushbu islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Yurtimizga tashrif buyurgan BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn O'zbekistonda Harakatlar strategiyasi doirasida izchil islohotlar ro'yobga chiqarilayotgani, bu jarayonda inson huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. BMT maxsus ma'ruzachilari bilan hamkorlikni qayta tiklash hamda Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasining Bishkek shahridagi Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy ofisi bilan ishlashni yo'lga qo'yish yuzasidan dastlabki kelishuvga erishilgani muhim natija bo'ldi. Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligi turli darajadagi, jumladan, Yevropa parlamenti vakillari, Yelning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Yevropa moliya institutlari, Yevropa tashqi aloqalar xizmati hamda Yevropa Komissiyasi rasmiy xodimlarining ko'p sonli tashriflari bilan yanada rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizga tashrif buyurgan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Peter Burian Yel 2017 — 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini ma'lum qildi. Uning ta'kidlashicha, O'zbekistondagi islohotlar nafaqat Yevropa Ittifoqi, ayni paytda qo'shni davlatlar bilan ham hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yel O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegara va boshqa masalalardagi hamkorligini yuqori baholaydi. Bu mintaqaviy hamkorlik bo'yicha loyihalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur loyihalar ta'lim sifatini yuksaltirish, qonun ustuvorligi va xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanishga ko'maklashish hamda tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan. 2017 yil fevral oyida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasida qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorlik bo'yicha anglashuv memorandumini imzolandi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi ikki tomonlama darajada barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan sheriklik va hamkorlik shartnomalari bo'yicha amaldagi kelishuvlarga ega. O'zbekiston 1996 yilning iyun oyidagi sheriklik va hamkorlik bo'yicha imzolagan shartnomasini 2017 yilda yangilash taklifi bilan murojaat qildi. Shu munosabat bilan 2018 yil noyabr oyida Yevropa Ittifoqi bilan sheriklik va hamkorlikni kengaytirish bo'yicha yangi bitim tuzish bo'yicha muzokaralar rasman boshlandi.

Keyingi uchrashuv 2020- yil 18-23 fevral kunlari Yevropa Ittifoqi (Yel) poytaxti Brussel sharida bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori O. Hakimov, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari O. Olimjonov hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti prorektori G. Ismailovalar qatnashishdi. Tashrif doirasida Yevropaning Osiyo tadqiqotlari institutida "Mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyani faollashtirish kontekstida Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo hamkorligining dolzarb masalalari" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Tadbirda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha 2019-yilda rasman qabul qilingan yangi strategiyasi muhokama qilindi. Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlari va mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyani faollashtirish nuqtai nazaridan yangi strategiyaning O'zbekiston bilan aloqalarga ta'siri to'g'risida fikrlar almashildi.

Dastur davomida mezbonlarga O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining barcha xalqaro konvensiyalarini to‘liq bajarayotganligi, iqtisodiy munosabatlar liberallashtirilganligi, ish beruvchi va ishchilarning huquqlari himoya qilinishi, yoshlar va ayollar bandligini ta‘minlash dasturlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, respublika korxonlarida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish to‘g‘risida ma‘lumot batafsil berildi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori O.Xakimov tomonidan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Mintaqaviy strategiyasi asosida amal qilayotgan mamlakatning ochiq va konstruktiv siyosati Markaziy Osiyoni dunyoning boshqa hududlari uchun jozibador mintaqaga aylantirishga xizmat qilayotganligi ta‘kidlandi. Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha yangilangan strategiyasi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bilan hamohangligi ham bunga qayd etildi.

Ayni paytda O‘zbekiston "Umumlashtirilgan imtiyozlar tizimi" (GSP) dan foydalanmoqda. Unga ko‘ra, 3000 ga yaqin tovarlar bojxona to‘lovisiz va 3200 ga yaqin mahsulotlar YeIga arzon narxlarda eksport qilinishi mumkin. "Umumlashtirilgan imtiyozlar plyus tizimi" – GSP+ bo‘yicha bir tomonlama tarif imtiyozlar olinsa, Yevropa bozoriga 6200 dan ortiq tovar turlarini bojxona to‘lovlarisiz eksport qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu imtiyozlarni berishda, YeI tomonidan bir qator omillarga asoslaniladi. Bular mamlakatda xavfsiz mehnat sharoitlari, mehnat huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarish ta‘minlanganlik darajasini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda birgalikda ishlash qobiliyatini ko‘rsatmoqda. Har ikki tomon uchun ham hali amalga oshirilmagan salohiyat mavjudligi aniq.